| Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi                                                                                                                   |     |
| Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....                                                                              | 329 |
| Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi                                                                                                             |     |
| Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish .....                                                      | 334 |
| Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li                                                                                                                |     |
| Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...                                            | 339 |
| Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi                                                                                     |     |
| Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini .....                                            | 346 |
| Saotmurotova Zebo Yuldash qizi                                                                                                                   |     |
| OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....                                          | 350 |
| Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi                                                                                                               |     |
| Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rni.....                                                                                           | 356 |
| Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li                                                                                                         |     |
| Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning o'qitishning lingvodidaktik asoslari .....                                                         | 361 |
| Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich                                                                                                            |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash .....               | 365 |
| Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon o'g'li                                                                                                           |     |
| Maktab ta'limida ko'paytirishning qulay usullari.....                                                                                            | 371 |
| Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi                                                                                                                 |     |
| Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri .....                                                   | 375 |
| Isayeva Mushtariy Alisher qizi                                                                                                                   |     |
| Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning o'rni.....                                                                        | 378 |
| Isoqov Nuriddin Halim o'g'li                                                                                                                     |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish .....                                | 382 |
| Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna                                                                                                                  |     |
| Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности .....                                                          | 386 |
| Марасулова Доно Нигматуллаевна                                                                                                                   |     |

|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati .....                                                                                                  | 389 |
| <b>Ungarbayeva Ayman Davletbayevna</b>                                                                                                                             |     |
| Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'lboshchisi .....                                                                         | 393 |
| <b>Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi</b>                                                                                                                         |     |
| Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish .....                                                                                          | 396 |
| <b>Yulchiyeva Shoxsanam</b>                                                                                                                                        |     |
| Особенности использования современных педагогических технологий<br>в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе .....                              | 399 |
| <b>Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович</b>                                                                                                       |     |
| Повышение информационной грамотности и формирование информационной<br>культуры студентов в среде дистанционного обучения.....                                      | 403 |
| <b>Р. К. Аюезова</b>                                                                                                                                               |     |
| Воздействие медиа в контексте социального формирования личности.....                                                                                               | 407 |
| <b>Хайдарова Гулинур Нурбек кизи</b>                                                                                                                               |     |
| Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов .....                                                                                        | 411 |
| <b>Чинкулова Гулмехра Бахроновна</b>                                                                                                                               |     |
| O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi: tajriba va amaliyot .....                                                                                               | 417 |
| <b>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li</b>                                                                                                                        |     |
| Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini<br>rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy tadbirlarning o'rni .....                           | 423 |
| <b>G'aybullayeva Sabohat Ulug'bek qizi, Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich</b>                                                                                      |     |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining adabiy kompetensiyalarini rivojlantirishda<br>matn ustida ishlashning ahamiyati.....                               | 426 |
| <b>Islomova Xafiza Azamatovna</b>                                                                                                                                  |     |
| O'quvchilarda estetik qobiliyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyati .....                                                   | 430 |
| <b>Kaxarova Gulnora Sa'dullayevna</b>                                                                                                                              |     |
| Boshqaruv kompetentligi tushunchasining pedagogik psixologik va<br>menejment sohalaridagi ilmiy asoslari va evolyutsiyasi.....                                     | 434 |
| <b>Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna</b>                                                                                                                          |     |
| Muhandislik ta'limida zamonaviy kompyuter grafikasi vositalari yordamida<br>talabalarning konstruktorlik faoliyatini rivojlantirish.....                           | 438 |
| <b>Muxitdinov Abdurahob Abduvalievich</b>                                                                                                                          |     |
| Turizm sohasiga oid terminlarni o'qitishda axborot texnologiyasi orqali takomillashtirish .....                                                                    | 442 |
| <b>Nishanova Hafiza Vafogulovna</b>                                                                                                                                |     |
| Ilmiy maqola yozish kompetensiyasini rivojlantirishda statistik metodlarni<br>integratsiyalashning ta'limiy samaradorligi .....                                    | 446 |
| <b>Rahimova Indira Quadrat qizi</b>                                                                                                                                |     |
| Sotsiologiyatning asosiy tushunchalari va konsepsiyalari .....                                                                                                     | 451 |
| <b>Rustamova Mohimbonu Maxammadjon qizi</b>                                                                                                                        |     |
| Pedagogik mahoratni baholashda O'zbekiston va Kanada tajribasining qiyosiy tahlili .....                                                                           | 455 |
| <b>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</b>                                                                                                                             |     |
| Basketbolning insonning jismoniy va kognitiv rivojlanishiga ta'siri: ilmiy tahlil.....                                                                             | 463 |
| <b>Umarjanov Alimardon Alisher o'g'li</b>                                                                                                                          |     |
| Talaba qizlar psixik salomatligi xususiyati deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omil sifatida.....                                                           | 466 |
| <b>Xasanova Mashxura Abduvalievna</b>                                                                                                                              |     |
| Ta'lim jarayonida o'yinlardan samarali foydalanish texnologiyasi.....                                                                                              | 471 |
| <b>Ortiqova Yulduz Akram qizi</b>                                                                                                                                  |     |
| Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining<br>kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirish ..... | 475 |
| <b>Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna</b>                                                                                                                         |     |



# O'QUVCHILARDA ESTETIK QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING TARBIYAVIY-METODIK SALOHİYATI

Kaxarova Gulnora Sa'dullayevna

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0007-3159-8446

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik qobiliyatlarni shakllantirishdagi tarbiyaviy-metodik salohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ertak, maqol, topishmoq kabi janrlar orqali obrazli tafakkur, badiiy did va emotsional idrokni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. O'qish savodxonligi darslarida xalq ijodidan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy faolligi va estetik qarashlarini boyitishning metodik asoslari yoritiladi. Mazkur yondashuv estetik tarbiyani milliy madaniyat vositasida shakllantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** estetik qobiliyat, xalq og'zaki ijodi, boshlang'ich ta'lim, obrazli tafakkur, badiiy idrok, tarbiyaviy-metodik salohiyat, o'qish savodxonligi, estetik tarbiya.

**Abstract:** This article analyzes the educational and methodological potential of oral folk art in developing the aesthetic abilities of primary school students. The study examines the possibilities for enhancing figurative thinking, artistic taste, and emotional perception through genres such as fairy tales, proverbs, and riddles. Methodological approaches to the use of folk literature in reading literacy lessons are highlighted, aiming to foster students' creative activity and enrich their aesthetic perceptions. The proposed approach holds significant practical value in shaping aesthetic education based on national cultural heritage.

**Key words:** aesthetic abilities, oral folk art, primary education, figurative thinking, artistic perception, educational and methodological potential, reading literacy, aesthetic education.

**Аннотация:** В данной статье анализируется воспитательно-методический потенциал образцов устного народного творчества в формировании эстетических способностей у младших школьников. В исследовании рассматриваются возможности развития образного мышления, художественного вкуса и эмоционального восприятия через такие жанры, как сказки, пословицы и загадки. Освещаются методические подходы к использованию народного фольклора на уроках литературного чтения с целью активизации творческой деятельности учащихся и обогащения их эстетических представлений. Предлагаемый подход имеет важное практическое значение в формировании эстетического воспитания на основе национальной культуры.

**Ключевые слова:** эстетические способности, устное народное творчество, начальное образование, образное мышление, художественное восприятие, воспитательно-методический потенциал, литературное чтение, эстетическое воспитание.

## KIRISH

Bugungi ta'lim jarayonida estetik qobiliyatlarni shakllantirish o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichida estetik qobiliyatlar – ya'ni, go'zallikni anglash, obrazli fikrlash, badiiy ifodaning mohiyatini his etish va uni ijodiy tarzda namoyon qilish ko'nikmalari faol rivojlanadi. Shu sababli aynan ushbu davrda xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'quvchilarda estetik qobiliyatlarni shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida e'tirof etiladi.

Xalq og'zaki ijodi – xalq tafakkurining betakror mahsuli, milliy madaniyatning asriy tajribasi va estetik ifoda vositalarining manbai hisoblanib, bolalarda obrazli idrok, badiiy tafakkur va emotsional sezgirlikni rivojlantirishda kuchli ta'sirga ega. Biroq ta'lim amaliyotida ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti. O'qituvchilar tomonidan xalq og'zaki ijodining metodik salohiyati va estetik rivojlanishdagi o'rni yetarlicha chuqur o'rganilmagan, darsliklar mazmunida bunday materiallar cheklangan hajmda keltirilgan.

Natijada, o'quvchilarning estetik qobiliyatlari to'liq shakllanmay qolmoqda, ularning badiiy nutqi va obrazli tafakkuri sust rivojlanishga duch kelmoqda.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'quvchilarning estetik qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim-tarbiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayonda xalq og'zaki ijodi namunalari tarbiyaviy-metodik salohiyati muhim o'rin tutadi. Xalq ijodiyoti vositasida o'quvchilarning emotsional-estetik idroki, obrazli tafakkuri va ijodiy ifoda qilish malakalari faol shakllanadi. Tabiiyki, bu yo'nalishda dars va darsdan tashqari faoliyatda xalq og'zaki ijodi namunalari maqsadli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

P.V. Sysoyev, V.A. Slastyonin, L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, N.B. Krylova, G.A. Uruntayeva, I.V. Cherkasova, G.I. Shchukina, E.I. Rogovlarning tadqiqotlarida estetik rivojlanishning yoshga xos psixologik xususiyatlari, xalq og'zaki ijodining ta'limiy ahamiyati, emotsional sezgirlikni shakllantirishdagi roli chuqur tahlil etilgan. Ayniqsa, G.A. Uruntayeva va V.V. Abramenkovaning bolalar estetik tajribasining rivojlanishiga doir ishlari boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda asos bo'la oladi.

Estetik qobiliyatni rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining namunalari – ertak, topishmoq, maqol va matallar, xalq qo'shiqlari vositasida – o'quvchilarning obrazli tafakkurini, badiiy didini, musiqiy eshituvchanligini, dramatik tasavvurini shakllantirish mumkin. N.L. Kolomyitseva, N.B. Krylova, L.S. Vygotskiylarning tadqiqotlarida qayd etilishicha, xalq og'zaki ijodidan foydalanish nafaqat madaniy merosni o'rgatish, balki did, ifoda, taqqoslash va emotsional reaksiyani o'stirish uchun ham samarali vositadir.

O'quvchilarning estetik qobiliyatlari faoliyat orqali rivojlanadi. I.V. Cherkasovanning fikricha, estetik idrok va baholash qobiliyati o'zlashtirilgan obrazlar asosida shakllanadi va bunga ta'sir etuvchi muhim omil – bu bolaga taklif etilayotgan obrazlarning mazmungan boyligi va emotsional ta'sir kuchidir. Xalq og'zaki ijodi esa aynan bunday obrazlarga boyligi bilan ajralib turadi.

M.A. Lukashina, T.A. Kulikova, V.V. Abramenkovalarning olib borgan ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning estetik qobiliyatlari ularning mustaqil badiiy faoliyatga jalb etilishi orqali shakllanadi. Shu boisdan xalq ijodiyoti asosidagi dramatisatsiyalar, rolli o'yinlar, badiiy ifoda topshiriqlari, obrazli kompozitsiyalar, musiqa va tasviriy san'at bilan integratsiya qilingan topshiriqlar o'quvchilarda ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik qobiliyatlarning shakllanish darajasini aniqlash va baholash maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, kuzatish usuli orqali dars jarayonida va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning estetik ifoda vositalaridan foydalanish darajasi hamda ularning obrazli fikrlash ko'nikmalari o'rganildi. To'g'ridan-to'g'ri suhbatlar orqali bolalarning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishi, estetik munosabat darajasi, obrazlarga berayotgan baholari hamda ularga xos dunyo-qarashlari aniqlashtirildi.

Anketa usuli yordamida o'qituvchilar va ota-onalarning o'quvchilarning badiiy-estetik rivojlanishiga oid fikrlari, qarashlari va tarbiyaviy yondashuvlari to'plandi va tahlil qilindi. Shuningdek, pedagogik eksperiment orqali xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ishlab chiqilgan ijodiy topshiriqlar tizimining estetik qobiliyatlarni shakllantirishdagi amaliy samaradorligi aniqlab olindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'qish savodxonligi darslari boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda savodli o'qish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularning estetik qarashlari, badiiy idroki va obrazli tafakkurini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu darslarda xalq og'zaki ijodi namunalari foydalanish bolalarda ma'naviy-estetik didni tarbiyalash, ularni go'zallikni his etish, axloqiy qadriyatlarni anglash va badiiy nutq vositalarini o'zlashtirishga yo'naltiradi. Xalq og'zaki ijodi – bu xalqning donishmandligi, tarbiyaviy tajribasi va badiiy tafakkurining ifodasidir. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, dostonlar va bolalar folklorining boshqa janrlari o'zining badiiy obrazlari, hayotiy falsafasi, estetik tuyg'ularga boy mazmuni bilan o'quvchilarning qalbiga ta'sir etadi, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi, emotsional idrokini faollashtiradi.

Ayniqsa, badiiy-estetik tarbiyaning samaradorligi o'quvchining asarga munosabati, obrazlar orqali voqealikka baho bera olish qobiliyati, ularni axloqiy-estetik jihatdan anglash darajasi bilan belgilanadi. O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodi namunalari tanlashda ularning estetik ifodaviy kuchi, didaktik imkoniyatlari va bolalar qiziqishiga mosligi muhim ahamiyatga ega. Ertaklarda yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, halollik va hiyla kabi hayotiy voqealarning badiiy obrazlar orqali ifodalanishi o'quvchini faollikka chorlaydi, uni qahramonlar bilan birga his qilish, baho berish va xulosa chiqarishga undaydi. Maqollar esa o'quvchilarning fikrlashini lo'nda, obrazli va mantiqiy tarzda ifoda etishga o'rgatadi, xalq tilining badiiy boyligidan bahramand bo'lish imkonini beradi. Topishmoqlar orqali esa o'quvchilarda mantiqiy va assotsiativ fikrlash, badiiy-analitik mushohada yuritish ko'nikmalari shakllanadi.

Bularning barchasi o'qituvchi tomonidan to'g'ri metodik yondashuv, ifodali o'qish, sahnalashtirish, badiiy tahlil va ijodiy mashqlar orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi matnni nafaqat mazmunni o'rgatish vositasi, balki estetik tarbiya manbai sifatida qabul qilsa, har bir dars bolalar qalbiga go'zallik, nafislik va axloqiy poklik tuyg'ularini singdirish vositasiga aylanadi. O'quvchilar obrazli fikrlashga, badiiy so'zdan zavqlanishga, matnda yashiringan axloqiy-estetik ma'nolarni anglashga o'rganadilar. Bu esa nafaqat ularning o'qish ko'nikmalarini, balki shaxsiy dunyoqarashini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyatidan to'laqonli foydalanish estetik tarbiyaning samarali mexanizmiga aylanadi.

Estetik qadriyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyatidan foydalanish zamonaviy pedagogik jarayonning ichki mazmunini boyitishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasining tarixiy shakllanishi va amaliy qo'llanilishiga asoslanadi. Xususan, XX asrning o'rtalarida boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning umumiy intellektual va emotsional rivojlanishini jadallashtirish maqsadida ishlab chiqilgan ta'limiy konsepsiyalar xalq ijodining estetik imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan edi. Bunda xalq og'zaki ijodi milliy madaniyatning qadimiy manbai sifatida nafaqat didaktik material, balki estetik idrok, axloqiy baho va badiiy fikrlashni shakllantiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Shu ma'noda ertak, maqol, topishmoq va boshqa janrlardagi og'zaki badiiy matnlar bolalarning obrazli tafakkurini, emotsional kechinmalarini va badiiy dunyoqarashini shakllantirishda kuchli estetik vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning estetik sezgirligi, badiiy idroki va madaniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini faollashtiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatlariga ko'ra estetik obrazlarga nisbatan sezgir bo'lib, ular badiiy matnni faqat tinglamaydi yoki o'qimaydi, balki uni yurakdan his qiladi, obrazlar bilan ichki dialogga kiradi, ularning harakatlariga baho beradi. O'qituvchining vazifasi esa bu jarayonda bolaga yo'l ko'rsatish, estetik mezonlar asosida fikr bildirishga undash, go'zallik, yaxshilik, adolat, poklik singari qadriyatlarni anglashga yetaklashdan iborat.

Shu bois, xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanishda faqat mazmunni o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar tafakkurini, estetik ongini va ichki ruhiy dunyosini rivojlantiruvchi metodik yondashuvlar qo'llanishi lozim. Bu jarayonda matn bilan ishlashda ifodali o'qish, dramatizatsiya, suhbat, ijodiy topshiriqlar, obrazli baholash kabi metodlar orqali o'quvchilarda estetik qaror qabul qilish, badiiy mushohada yuritish, o'zining individual nuqtai nazarini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat tashkil etiladi. O'qituvchi badiiy so'zning kuchini, xalq ijodining tarbiyaviy potensialini anglagan holda har bir matndan bolaga estetik ta'sir beruvchi manba sifatida foydalanmog'i zarur. Bu jarayonda bolalar nutqi shakllanadi, badiiy tilga qiziqish kuchayadi, ularning go'zallikka bo'lgan ehtiyoji faollashadi, nutqdagi aniqlik va obrazlilik orqali nafaqat axborotni, balki estetik ta'sirni ham idrok qilish qobiliyati ortadi.

Xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilar go'zallik va badiiylilik, adolat va yovuzlik, rostgo'ylik va hiyla, jasorat va qo'rqqoqlik kabi qarama-qarshi tushunchalarni obrazlar orqali tahlil qiladi, o'z dunyoqarashini o'stiradi, ma'naviy mezonlar asosida baho berishga o'rganadi. Shaxsning ijtimoiy muhitda va maxsus ta'lim muassasalarida individual tajribani o'zlashtirishi – rivojlanish, o'qitish va tarbiyaning murakkab, o'zaro bog'liq jarayonidir. Bu jarayonda rivojlanish estetik tarbiyaning yakuniy maqsadi sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlarda ijodkorlik shaxsning o'zini anglash vositasi sifatida e'tirof etilib, u har qanday faoliyat sohasida yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan estetik tafakkur va yangilik yaratish qobiliyati bilan xarakterlanadi.

Ma'lumki, estetik ijodkorlik imkoniyatlari nafaqat qobiliyatga, balki shaxsning xarakter xususiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Insonda badiiy-estetik tafakkur va tasavvur kuchining shakllanishi bolalik davriga – ya'ni hayotiy va ixtiyoriy tajribaning faol rivojlanadigan bosqichiga to'g'ri keladi. Boshlang'ich sinf yoshida o'quvchilar xalq og'zaki ijodi namunalari orqali obrazli tafakkur va estetik idrok jarayoniga faol jalb etilganda, ularning estetik sezgirligi sezilarli darajada kuchayadi. Ular kutilmagan taqqoslashlar, g'ayrioddiy taxminlar bilan ajralib turadi va bu ularning estetik qarashlarini shakllantiradi.

Ertak, topishmoq, maqol singari janrlar orqali olib boriladigan metodik yondashuv o'quvchilarning ijodiy-estetik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kuchli rag'bat vazifasini bajaradi. O'quvchilarda estetik qadriyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyati alohida o'rin tutadi. Estetik tarbiya bolalarda go'zallikni anglash, his qilish, unga nisbatan munosabat bildirish, hayotdagi nafislikni qadrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Aynan boshlang'ich sinf davri bu jarayon uchun eng qulay bosqich bo'lib, bolalarning obrazli tafakkuri, hissiy qabul qilish qobiliyati va ijodiy tasavvuri aynan shu yoshda faol rivojlanadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari – ertak, maqol, topishmoq, doston kabi janrlar o'quvchining tafakkurini estetik jihatdan boyitadi, axloqiy mezonlarni anglashga yordam beradi, hayotiy vaziyatlarga nisbatan estetik pozitsiyani shakllantiradi. Bunday janrlar orqali tarbiyaviy ma'no go'zallik vositasida yetkaziladi: badiiy obrazlar orqali bola yaxshilik va yomonlikni ajrata boshlaydi, go'zal nutq, obrazli ifodalar, badiiy tuyg'ular orqali nafosat mezonlarini anglaydi. Xalq ijodi asosida olib boriladigan darslar o'quvchilarni faqat passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida tarbiyalaydi. Ertakni ifodali o'qish, sahnalashtirish, mazmuniga mos rasm chizish yoki matnga ijodiy davom yozish kabi faoliyatlar orqali bola badiiy-estetik jihatdan tarbiyalanadi.



Bunda o'qituvchining roli beqiyosdir: u xalq og'zaki ijodiy merosini didaktik maqsadlarga mos holda tanlaydi, uni estetik tarbiyaning vositasi sifatida uyg'unlashtirib, o'quvchining ichki dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodiga asoslangan metodik yondashuv estetik qadriyatlarni shakllantirishda nafaqat samarali, balki milliy madaniyatga tayangan, barqaror natijalarga olib keluvchi yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'qish savodxonligi fanidagi estetik tarbiya jarayonining asosiy maqsadi – xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda san'at va hayotga nisbatan ongli hamda estetik munosabatni shakllantirishdir. Ushbu jarayonda pedagog har bir bolaning badiiy-estetik sezgirligi va ijodiy tashabbusini aniqlab, uni rag'batlantirishi hamda yo'naltirishi lozim.

O'qituvchining metodik faoliyati o'quvchilarning obrazli fikrlashini faollashtirish, xalq ijodi namunalarini idrok etish orqali estetik mezonlar asosida baholash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Xalq qo'shiqlari, ertaklar, topishmoqlar va maqollar orqali bolalar nafaqat axborot oladi, balki obrazli tafakkur va estetik hissiyotlar olamiga chuqur kirib boradi.

Bu jarayonda o'qituvchining didi, tanlangan materiallar va ularga bo'lgan uslubiy yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyatda estetik tarbiyaning samaradorligi, avvalo, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos vosita hamda metodlarning tanlanishiga bog'liq. Darslar davomida o'qituvchi xalq og'zaki ijodi vositasida go'zallik, hayotiy haqiqat va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishga harakat qilishi zarur.

O'quvchilarning ushbu materiallarga bo'lgan qiziqishi ularning obrazli tafakkuri va emotsional sezgirligiga tayangan holda shakllanadi. Xalq ijodini o'qish savodxonligi darslarida samarali qo'llash uchun ifodali o'qish, dramatizatsiya, obrazli tahlil, ijodiy yozuv va estetik suhbatlar kabi metodlarni tizimli ravishda joriy etish muhimdir. Ayniqsa, bolalar folkloriga oid namunalardan foydalanish o'quvchilarda obrazlarni anglash, ularni estetik mezon asosida baholash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, estetik did va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyati beqiyos bo'lib, unga asoslangan ijodiy topshiriqlar va sinfdan tashqari faoliyatlar pedagogik jarayonning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. – URL: <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi ma'ruza. – URL: <https://www.pv.uz/uz/news>
3. Abdijamilova M. M. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning o'qib tushunish malakalarini shakllantirish metodikasi: dis. PhD. – Namangan: Namangan davlat universiteti, 2025.
4. Mustafoev B. Estetik tarbiya metodikasi: o'quv qo'llanma. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2023. – 116 b. – ISBN 978-9910-9800-4-6.
5. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi: universitetlarning Filologiya va Jurnalistika hamda pedagogika institutlarining Til va adabiyot fakultetlari uchun o'quv qo'llanma / mas'ul muharrir: H. Boltaboyev. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 228 b. – ISBN 978-9943-363-90-8.
6. Ruzikulova N. K. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xalq og'zaki ijodini o'qitishning nazariy va amaliy asoslari // Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologik-pedagogik jihatlari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2-iyun 2023) / Mas'ul muharrir: Malikova N. – Toshkent: Osiyo xalqaro universiteti, 2023. – B. 192–196. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7992939>
7. Ильина С. В. Сущность эстетического воспитания младших школьников // Начальная школа. – 2019. – № 4. – С. 51–54.
8. Тряпицын А. А. Культурно-эстетическое развитие младших школьников в условиях внеурочной деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 2017. – 27 с.
9. Хафизова Л. Г. Формирование эстетической культуры младших школьников во внеурочной деятельности // Современные проблемы науки и образования. – 2016. – № 6. – URL: <https://www.science-education.ru/ru/article/view?id=26062> (дата обращения: 14.07.2025).
10. Омарова М. Б. Формирование эстетических чувств младших школьников на уроках литературного чтения // Начальная школа плюс до и после. – 2019. – № 4. – С. 49–52. – DOI: 10.24411/2304-4597-2019-10411.
11. Горбунова О. А., Анисимов А. В. Сущность эстетического воспитания младших школьников // Мир науки, культуры, образования. – 2017. – № 4 (65). – С. 96–98.
12. Митрофанова Е. П. Роль декоративно-прикладного искусства в эстетическом воспитании детей старшего дошкольного возраста: выпускная квалификационная работа / Науч. рук. Л. Н. Корчагина. – Пенза: Пензенский гос. ун-т, Пед. ин-т им. В. Г. Белинского, 2020. – 55 с.



- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari





# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.